



TAKAFUL SUG'URTASIDA SHARIAT NAZORAT KENGASHINI TASHKIL ETISHNING INSTITUTSIONAL MODELI: O'ZBEKISTON UCHUN TAKLIFLAR

**Usmanov Nematjon
G'ulomovich**

*O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya
akademiyasi mustaqil izlanuvchisi*
nejon@live.com

Annotatsiya. Tezisd takaful sug'urtasida shariat boshqaruvining institutsional modellari qiyosiy tahlil qilingan. IFSB-31 (2025), IFSB-10 va AAOIFI standartlari hamda Malayziya, BAA, Bahrayn, Indoneziya va Markaziy Osiyo mamlakatlari tajribasi asosida O'zbekiston uchun ikki pog'onali model — milliy darajadagi yagona shariat organi va kompaniya darajasidagi shariat nazorat kengashi — asoslab berilgan hamda uni joriy etishning huquqiy va kadrlar bilan bog'liq shartlari aniqlangan.

Kalit so'zlar: *takaful, shariat nazorat kengashi, shariat boshqaruvi, IFSB-31, markazlashgan shariat organi, fatvo, O'zbekiston.*

Kirish

Takafulning mavjudlik asosi — sug'urta himoyasining shariat talablariga muvofiqligi. IFSB-8 standartida ta'kidlanganidek, shariat boshqaruvi takaful operatorining ajralmas belgisi bo'lib qolishi lozim, chunki takafulning mohiyati aynan shariatga mos himoya sxemasini taklif etishdadir (IFSB, 2009a). AAOIFI 26-son standartining 5/9-bandi esa kompaniya uchun majburiy fatvolar chiqaruvchi shariat nazorat kengashi tashkil etilishini hamda ichki shariat monitoringi va auditi bo'linmasi tuzilishini talab qiladi (AAOIFI, 2015). O'zbekistonda 2026-yil 27-martdagi O'RQ-1126-son Qonun bilan islom bank faoliyati uchun shariat boshqaruvining ikki pog'onasi — Markaziy bank huzuridagi Islom moliyasi kengashi va har bir bankdagi islomiy moliya kengashi — yaratildi (O'zbekiston Respublikasining O'RQ-1126-son Qonuni, 2026), ammo sug'urta sohasi bu tuzilmadan tashqarida qoldi. Takafulni joriy etishda shariat nazorati qanday tashkil etilishi — ochiq masala bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar sharhi

Xalqaro standartlar shariat boshqaruvining uch tuzilmaviy variantini tan oladi: nazorat organi huzuridagi markaziy shariat organi, qonun bilan tashkil etilgan milliy shariat organi yoki faqat institut darajasidagi kengashlar; IFSB-31 standarti qaysi variant tanlanishidan qat'i nazar a'zolarga malaka (fit-and-proper) talablari qo'yilishini, shariat qarorlarining huquqiy maqomi aniq belgilanishini hamda «uch himoya chizig'i» — biznes bo'linma, shariat komplayens va risk-menejment, ichki shariat auditi — joriy etilishini talab qiladi (IFSB, 2025). IFSB-10 kengashning mustaqilligi, malakasi, maxfiylik va qarorlar izchilligi tamoyillarini belgilaydi hamda manfaatlar to'qnashuvini oldini olish uchun milliy organ a'zolarining institut

kengashlarida ishtirokini cheklash amaliyotini qayd etadi (IFSB, 2009b). AAOIFI 2024-yil dekabrda shariat nazorat kengashini tayinlash, faoliyati va hisoboti bo'yicha yangilangan 19–21-son boshqaruv standartlarini qabul qildi (AAOIFI, 2024).

Empirik adabiyot shariat kengashi sifatining moliyaviy natijaga ta'sirini tasdiqlaydi. BenSaid (2025) Yaqin Sharqning o'n bitta takaful operatori bo'yicha kengash hajmi, a'zolarining obro'si va malakasi moliyaviy natijadorlikning asosiy omillari ekanini, BenSaid va Quttainah (2026) esa o'n to'qqiz operator misolida kengash sifati barqarorlik omillarining ta'sirini moderatsiya qilishini — kengash sifati yuqori bo'lganda diversifikatsiyaning barqarorlikka ijobiy ta'siri susayishini — ko'rsatgan. Sallemi va Zouari (2024) 30 ta takaful operatori bo'yicha shariat kengashi natijaga korporativ ijtimoiy mas'uliyat orqali ta'sir etishini aniqlagan. Grassa, El-Halaby va Khelif (2023) islom banklari bo'yicha 46 tadqiqotni qamragan meta-tahlilda kengash hajmi, malakasi va obro'si natijadorlik bilan ijobiy bog'liq ekanini tasdiqlagan. Markazlashuv masalasida Alam va boshqalar (2022) yagona reguliator sharoitida amaliyotlarning tarqoqligini markaziy shariat kengashi va yagona yo'riqnomalar yo'qligi bilan izohlab, markaziy bank huzurida markaziy kengash tuzishni tavsiya etgan. Mukhtar va Jallow (2025) esa iste'molchi ishonchi takafulni qabul qilishning muhim omili ekanini ko'rsatgan — shariat nazoratining institutsional kafolati aynan shu ishonchni shakllantiradi.

Metodologiya

Tadqiqotda qiyosiy-huquqiy usul va hujjatli tahlil qo'llanilgan. Xalqaro standartlar (IFSB-8, IFSB-10, IFSB-31, AAOIFI) mezon sifatida olinib, yetti yurisdiksiyaning me'yoriy hujjatlari to'rt belgi — milliy darajadagi organ, kompaniya darajasidagi organ (a'zolarga qo'yiladigan talablar bilan birga), qarorlarning majburiyligi va takafulga tatbiqi — bo'yicha qiyoslandi. Shu asosda O'zbekiston uchun model va uni joriy etish shartlari shakllantirildi.

Natijalar va muhokama

Qiyosiy tahlil natijalari 1-jadvalda umumlashtirilgan. Yetakchi takaful bozorlari — Malayziya, BAA, Indoneziya — ikki pog'onali modelni qo'llaydi: milliy darajadagi organ metodologik birlik va fatvolarning izchilligini ta'minlaydi, kompaniya darajasidagi kengash esa mahsulot va operatsiyalarning joriy nazoratini amalga oshiradi. Malayziyada Markaziy bank huzuridagi Shariat maslahat kengashi qarorlari 2009-yilgi Markaziy bank to'g'risidagi qonunning 57-moddasiga ko'ra sudlar uchun ham majburiy (Central Bank of Malaysia Act 2009), operator darajasidagi qo'mita kamida besh a'zodan iborat bo'lib, ularning ko'pchiligi shariat mutaxassisi bo'lishi va a'zolik muddati to'qqiz yildan oshmasligi lozim (Bank Negara Malaysia, 2019). BAA Markaziy banki 2023-yilda takaful kompaniyalari uchun alohida shariat boshqaruvi standartini qabul qilib, kompaniya qo'mitasi fatvolarini majburiy, Oliy shariat organi fikrini esa yakuniy deb belgiladi hamda ichki shariat auditini outsorsingga berishni taqiqladi (Central Bank of the UAE, 2023). Bahraynda takaful kompaniyasi kamida uch olimdan iborat kengash tuzishi va AAOIFI GS-1 talablariga rioya etishi shart (Central Bank of Bahrain, 2026), Indoneziyada esa shariat sug'urta kompaniyasi shariat nazorat kengashiga ega bo'lishi va uning a'zolari reguliatorning malaka tekshiruvidan o'tishi belgilangan (Otoritas Jasa Keuangan, 2016).

1-jadval

**Takaful sohasida shariat boshqaruvining institutsional modellari:
yurisdiksiyalar qiyosi**

Yurisdiksiya	Milliy darajadagi organ	Kompaniya darajasidagi organ	Qarorlarning majburiyligi	Takafulga tatbiqi
Malayziya	Markaziy bank huzuridagi Shariat maslahat kengashi (1997); Markaziy bank to'g'risidagi qonun (2009), 51–58-moddalar	Shariat qo'mitasi — kamida 5 a'zo, ko'pchiligi shariat mutaxassisi; a'zolik 9 yildan oshmaydi	Milliy kengash qarorlari sud va institutlar uchun majburiy	Ha — takaful operatorlariga to'liq tatbiq etiladi
BAA	Markaziy bank huzuridagi Oliy shariat organi	Ichki shariat nazorat qo'mitasi — kamida 3 a'zo, Oliy organ roziligi bilan	Qo'mita fatvolari kompaniya uchun, Oliy organ fikri esa yakuniy	Ha — takaful kompaniyalari uchun alohida standart (2023)
Bahrayn	Markaziy bankning markazlashgan shariat kengashi (bank sektori)	Shariat kengashi — kamida 3 olim, AAOIFI GS-1 talablari (HC-9-modul)	Bank sektorida markaziy kengash fikri ustun	Kompaniya darajasida majburiy
Indoneziya	DSN-MUI milliy shariat kengashi fatvolari	Shariat nazorat kengashi (DPS), OJK malaka tekshiruvidan o'tadi	Fatvo qonun bilan tan olingan	Ha — shariat sug'urta kompaniyalari uchun majburiy
Qozog'iston	Yo'q (sug'urta uchun)	Islom moliyalashtirish tamoyillari kengashi — majburiy (36-4-modda)	Kompaniya darajasida	Ha, ammo operator yo'q
Qirg'iziston	Yo'q (sug'urta uchun)	Islom sug'urta tamoyillari kengashi (89-son Qonun, 20-modda; 197-son Qaror, 5–6-boblar)	Kompaniya darajasida; a'zolar regulyator bilan kelishiladi	Ha
O'zbekiston	Markaziy bank huzuridagi Islom moliyasi kengashi (2026) — faqat bank va mikromoliya	Bankdagi islomiy moliya kengashi (O'RQ-1126); sug'urta uchun talab yo'q	Bank sektorida — standartlar Markaziy bank tomonidan tasdiqlanadi	Yo'q

Manba: Central Bank of Malaysia Act 2009, Bank Negara Malaysia (2019), Central Bank of the UAE (2023), Central Bank of Bahrain (2026), Otoritas Jasa Keuangan (2014), Qozog'iston Respublikasining 126-II-son Qonuni (2000), Qirg'iziston Respublikasining 89-son Qonuni (2025), Qirg'iziston Respublikasi

Vazirlar Mahkamasining 197-son Qarori (2026), O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-1126-son Qonuni (2026) asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Markaziy Osiyo mamlakatlari esa faqat kompaniya darajasidagi organ bilan chegaralangan: Qozog‘istonda islom sug‘urta tashkilotida islom moliyalashtirish tamoyillari kengashi majburiy tartibda tuziladi (36-4-modda), Qirg‘izistonda islom sug‘urta tashkilotining qoidalari Islom sug‘urta tamoyillari kengashining ijobiy xulosasi bilan tasdiqlanadi va kengash a‘zolari regulyator bilan kelishiladi. Ikkala mamlakatda ham sug‘urta uchun milliy darajadagi shariat organi mavjud emas — bu fatvolar tarqoqligi va regulyativ arbitraj xavfini tug‘diradi. O‘zbekistonning holati o‘ziga xos: milliy darajadagi organ — Markaziy bank huzuridagi Islom moliyasi kengashi — 2026-yil iyul oyida tashkil etilgan bo‘lib, besh a‘zodan (to‘rt shariat olimi va bir moliya mutaxassisi) iborat, milliy standartlarni ishlab chiqish va Markaziy bank nazoratidagi tashkilotlarga maslahat berish vakolatiga ega (Kun.uz, 2026), ammo sug‘urta sohasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi tomonidan tartibga solingani sababli takaful uning vakolatidan tashqarida qolmoqda.

Shu asosda O‘zbekiston uchun ikki pog‘onali model taklif etiladi. Milliy pog‘onada eng maqbul yechim — Markaziy bank huzuridagi Islom moliyasi kengashi vakolatini takafulga kengaytirish, buning uchun Kengash tarkibiga sug‘urta bo‘yicha mutaxassis kiritish va Istiqbolli loyihalar milliy agentligi bilan idoralararo kelishuv tartibini belgilash lozim; bu IFSB-31 tan olgan markazlashgan variantga mos keladi (standartning o‘zi tuzilma tanlovida neytral) va ikkita parallel milliy organ tuzilishidan qochish imkonini beradi. Alternativ — Agentlik huzurida takaful bo‘yicha alohida shariat qo‘mitasi — kadrlar tanqisligi sharoitida kamroq maqbul: Yevroosiyo taraqqiyot banki va Islom taraqqiyot banki institutining hisobotida qayd etilganidek, mintaqada islom moliyasi bo‘yicha malakali mutaxassislar hanuz kam (Eurasian Development Bank, Islamic Development Bank Institute and LSEG, 2025). Kompaniya pog‘onasida har bir takaful operatori yoki islomiy «oyna»da kamida uch a‘zodan iborat shariat nazorat kengashi majburiy bo‘lishi, a‘zolarga malaka talablari (shariat ilmi va moliya bo‘yicha bilim, AAOIFI sertifikat) qo‘yilishi, milliy organ a‘zolarining kompaniya kengashlarida bir vaqtda ishtiroki cheklanishi hamda IFSB-31ga muvofiq shariat komplayens va ichki shariat auditi funksiyalari tashkil etilishi lozim.

Xulosa

Takafulda shariat nazorati mahsulotning huquqiy asosi va iste‘molchi ishonchining kafolatidir. O‘zbekiston uchun ikki pog‘onali model — Markaziy bank huzuridagi Islom moliyasi kengashi vakolatini sug‘urta sohasiga kengaytirish hamda har bir operatorida kamida uch a‘zodan iborat mustaqil shariat nazorat kengashini majburiy qilish — xalqaro standartlarga mos, mavjud institutlarga tayanadi va kadrlar tanqisligi sharoitida institutsional jihatdan eng maqbul yechim hisoblanadi. Uni amalga oshirish uchun «Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida»gi qonunga takaful bobini kiritishda shariat kengashi talabini bevosita mustahkamlash, a‘zolarga malaka talablari va Agentlik bilan kelishuv tartibini nizomda belgilash hamda O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi bilan hamkorlikda shariat va moliya bo‘yicha ikki tomonlama malakaga ega mutaxassislar tayyorlash dasturini ishga tushirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. AAOIFI (2015) Shari'ah standards for Islamic financial institutions. Manama: Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions. Shari'ah Standard No. 26 'Islamic insurance'.
2. AAOIFI (2024) Governance standards No. 19–21 on the Shari'ah supervisory board: appointment and composition; functions and operations; review and report. Manama: AAOIFI, 29 December.
3. Alam, M.K., Islam, M.S., Islam, F.T., Tabash, M.I., Sahabuddin, M. and Alauddin, M. (2022) 'One regulator: diversified Shariah governance practices, why?', *Asian Journal of Accounting Research*, 7(3), pp. 332–343. doi:10.1108/AJAR-07-2021-0104.
4. Bank Negara Malaysia (2019) Shariah governance: policy document. BNM/RH/PD 028-100. Kuala Lumpur: Bank Negara Malaysia.
5. BenSaid, Y.R. (2025) 'Shariah governance and takaful financial performance: the case of listed takaful insurances', *Journal of Islamic Accounting and Business Research*, 16(1), pp. 170–187. doi:10.1108/JIABR-09-2022-0236.
6. BenSaid, Y.R. and Quttainah, M.A. (2026) 'The determinants of takaful insurance financial stability: the moderating role of Shari'ah Supervisory Board', *Journal of Islamic Accounting and Business Research*, 17(5), pp. 977–998. doi:10.1108/JIABR-11-2023-0392.
7. Central Bank of Bahrain (2026) CBB Rulebook Volume 3: Insurance, Module HC-9 'Takaful and retakaful companies'. Manama: Central Bank of Bahrain. Manba: <https://cbben.thomsonreuters.com> (murojaat sanasi: 16.08.2026).
8. Central Bank of Malaysia Act 2009 (Act 701), Part VII, ss. 51–58. Kuala Lumpur: Percetakan Nasional Malaysia Berhad.
9. Central Bank of the UAE (2023) Standard re Shari'ah governance for takaful insurance companies. Abu Dhabi: CBUAE.
10. Eurasian Development Bank, Islamic Development Bank Institute and LSEG (2025) The future of Islamic finance in Central Asia. Almaty: Eurasian Development Bank; Jeddah: IsDB Institute; London: LSEG.
11. Grassa, R., El-Halaby, S. and Khelif, H. (2023) 'Shariah board characteristics and Islamic banks' performance: a meta-analysis', *International Journal of Islamic and Middle Eastern Finance and Management*, 16(6), pp. 1089–1106. doi:10.1108/IMEFM-10-2022-0392.
12. IFSB (2009a) IFSB-8: Guiding principles on governance for takāful (Islamic insurance) undertakings. Kuala Lumpur: Islamic Financial Services Board.
13. IFSB (2009b) IFSB-10: Guiding principles on Shari'ah governance systems for institutions offering Islamic financial services. Kuala Lumpur: Islamic Financial Services Board.
14. IFSB (2025) IFSB-31: Guiding principles for effective supervision of Shari'ah governance. Kuala Lumpur: Islamic Financial Services Board.
15. Kun.uz (2026) Central Bank establishes Islamic Finance Council to guide sector development, 16 July. Manba: <https://kun.uz> (murojaat sanasi: 16.08.2026).
16. Mukhtar, Y.A. and Jallow, C. (2025) 'Factors influencing consumers' intention to adopt takaful products in Somalia: extension of diffusion of innovation theory', *Cogent Business & Management*, 12(1), 2543050. doi:10.1080/23311975.2025.2543050.

17. Otoritas Jasa Keuangan (2016) Peraturan OJK No. 73/POJK.05/2016 tentang tata kelola perusahaan yang baik bagi perusahaan perasuransian. Jakarta: OJK.
18. O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-1126-son Qonuni (2026) ‘O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O‘zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida’, 2026-yil 27-mart. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
19. Qirg‘iziston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 197-son Qarori (2026) ‘Islom tamoyillari bo‘yicha sug‘urtaga (takaful), yuklatilgan sug‘urtaga va annuitet sug‘urtasiga qo‘yiladigan talablarni tasdiqlash to‘g‘risida’, 2026-yil 27-mart.
20. Qirg‘iziston Respublikasining 89-son Qonuni (2025) ‘Sug‘urta va sug‘urta faoliyati to‘g‘risida’, 2025-yil 29-aprel.
21. Qozog‘iston Respublikasining 126-II-son Qonuni (2000) ‘Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida’, 2000-yil 18-dekabr (36-4-modda).
22. Sallemi, N. and Zouari, G. (2024) ‘Shariah board and takaful performance: mediating role of corporate social responsibility’, *International Review of Economics*, 71(2), pp. 175–204. doi:10.1007/s12232-023-00439-2.